

## EMOTSIYA HAQIDA TUSHUNCHA, EMOTSIYANING NAMOYON BO'LISHI

To'lg'inboyeva Mahliyo

Farg'ona davlat universiteti Pedagogika va psixologiya fakulteti talabasi.

*Annotatsiya: Uzoq vaqt davomida psixologlar hissiyotlar tabiati haqidagi masalani echishga uringanlar. XVIII-XIX asrlarda ushbu muammo bo'yicha hech qanday nuqtai nazarlar mavjud emas edi. Keng tarqalgan qarashlardan hissiyotlarning organik ifodalanishlari – bu psixik hodisalarning oqibati haqidagi dalil asosida paydo bo'lgan intellektuallashtirish nuqtai nazaridir. Ushbu maqolada ham emotsiyaning paydo bo'lishi haqida tushunchalar berib o'tilgan.*

*Kalit so'zlar: Psixologlar, hissiyot, tasavvur, nazariya, tadqiqot, nazariya, psixik, aloqa, fikr, tabiat, emotsional, kechinma, holat, natija.*

## UNDERSTAND EMOTION, EMOTION BEING AN EXEMPLARY

Tolkinbayeva Mahliyo

Student of the Faculty of Pedagogy and Psychology of Fergana State University.

*Abstract: For a long time, psychologists have tried to solve the problem of the nature of emotions. In the 18th and 19th centuries, there were no views on this problem. Among the widespread views, the organic expressions of emotions is the intellectualization point of view that arose on the basis of evidence about the consequences of mental phenomena. This article also provides insights into the emergence of emotions.*

*Keywords: Psychologists, emotion, imagination, theory, research, theory, psychic, communication, thought, nature, emotional, experience, state, result.*

## ПОНИМАТЬ ЭМОЦИИ, ЭМОЦИИ БЫТЬ ОБРАЗЦОМ

Толкинбаева Махлиё

Студент факультета педагогики и психологии Ферганского государственного университета.

*Аннотация: Долгое время психологи пытались решить проблему природы эмоций. В 18 и 19 веках взглядов на эту проблему не существовало. Среди широко распространенных взглядов на органическое выражение эмоций является точка зрения интеллектуализации, возникшая на основе данных о последствиях психических явлений. В данной статье также даются представления о возникновении эмоций.*

*Ключевые слова: Психологи, эмоция, воображение, теория, исследование, теория, психическое, общение, мысль, природа, эмоциональное, переживание, состояние, результат.*

**KIRISH.** Uzoq vaqt davomida psixologlar hissiyotlar tabiati haqidagi masalani echishga uringanlar. XVIII-XIX asrlarda ushbu muammo bo'yicha hech qanday nuqtai nazarlar mavjud emas edi. Keng tarqalgan qarashlardan hissiyotlarning organik ifodalanishlari – bu psixik hodisalarning oqibati haqidagi dalil asosida paydo bo'lgan intellektuallashtirish nuqtai nazaridir. Tasavvur fundamental psixologik dalil bo'lib hisoblanadi, bizning hislarimiz esa turli tasavvurlar o'rtasida o'rnatiladigan aloqalarga mos keladi, va tasavvurlar o'rtasidagi nizolika nisbatan ta'sirlanish sifatida ko'rib chiqiladi, deb hisoblagan.

I.F. Gerbart, bu nazariyaning aniq ifodasini keltirdi. V. Vundt ham bu nazariyaning tarafdori edi. Shunday qilib, hissiyotlarni tadqiq qilishda ular haqidagi sub'ektiv, ya'ni, hissiyotlarning psixik tabiati haqidagi fikrlar o'z tasdig'ini topdi, unga muvofiq psixik jarayonlar ma'lum organik o'zgarishlarni keltirib chiqaradi.

Hissiyotlarning hozirgi zamon tarixi 1884 - yilda U. Djemsning «hissiyot nima?» maqolasining chop etilishidan boshlanadi. U. Djeyms va undan mustaqil ravishda G. Lange hissiyotlar nazariyasini ishlab chiqdilar, unga asosan, hissiyotlarning paydo bo'lishi hosil qilinadigan tashqi ta'sirlar, ixtiyoriy harakat va tizimlar sohasidagi o'zgarishlar bilan bog'liq. Bu o'zgarishlar bilan bog'liq bo'lgan hissiyotlar, emotsional kechinmalarining xuddi o'zidir.

### MUXOKAMA VA NATIJALA

Emotsional holatlar va stress metodikasi. Farg'ona shahar 1-maktab 6-a va 6-b sinf (11-12 yosh)


o'quvchilarida sinov tariqasida o'tkazdim. Sinflarda jami 50 ta o'quvchi bo'lib, 26 ta qiz bola va 24 ta o'g'il bola bor. Ularga metodika blankasi taqdim etildi va natijalar olinib tahlil qilindi.

	Respondentlar (I.F.)	Natija
1	Abdurahmonov Ismoil	47
2	Abduraimjonova Dilnoza	48
3	Ahunov Abdulatif	47
4	Akramov Habibillo	43
5	Bobokalonov Muhiddin	49
6	Ismoilov Shukurullo	48
7	Isaqjonov Sardor	42
8	Karimov Ro'zimuhammad	45
9	Kozimova Shahzoda	46
10	Mahammadjonov Murodjon	43
11	Mahammadjonova Rano	45
12	Muhammadjonova Nodira	47
13	Mo'ydinova Maxfuza	44
14	Oripova Muhayyo	41
15	Oripov Islom	42
16	Rahimova Firdavsbegim	44
17	Soyibjonova Oygul	46
18	Sottiboyev Abbos	50
19	Tursunaliyev Zokirjon	38
20	Tursunova Xosiyat	42
21	Tojiboyeva Malohat	43
22	To'xtasinova Oydinoy	47
23	Umaraliyeva Muharramoy	50
24	Umrzaqov Otabek	45
25	Xoshimova Shohsanam	45
26	Xolmatova Muhlisa	44
27	Xasanova Marhabo	47
28	Xakimov Saidjahon	48
29	G'ulomova Mavluda	45
30	Zulimova Charos	44
31	Xasanova Zulayho	47
32	Ashuraliyev Bahodir	43
33	Toshaliyeva Sanobar	46
34	Sotvoldiyev Islom	46
35	Islomov Akbar	49
36	Umarova Marina	41
37	Rahimova Muhabbatxon	46
38	Rahimov Ikromjon	45
39	Shavkatjonov Samandar	48
40	Ashuraliyev Navruzbek	35
41	Olimova Laylohon	45
42	Akbarova Malohatoy	37
43	Burxonova Mohidil	46
44	Salimov Ahror	47
45	Yuldashev Bobur	45
46	Yo'ldasheva Dilyora	44
47	Omonov Omonullo	42
48	Nazaraliyev Narzullo	46
49	Xakimova Maftuna	38
50	Yoqubova Mohinur	35


TO'PLANGAN BALLAR	O'QUVCHILAR SONI	STRESS HOLATI
48 balldan yuqori	7ta	Yuqori
40-48 ball	38ta	O'rtacha
40 balldan kam	5ta	Past

Natijalar:

1-diagramma:



2-diagramma:



Test xulosasi.

Olingan natijalar o'rganilib emotsional sohasida muammo bo'lgan stress darajasi yuqori bo'lgan o'quvchilar belgilab olindi va maktab psixologi bilan kelishilgan holda ularga korreksiya ishlari tasis etilishi belgilandi. «O'smir bo'lish»ning o'ziga xosligi bolalar xuquqlarining kengayishi va rasmiy ta'lim jarayoni bilan bog'liq. O'smirlar ko'pincha kattalar singari harakat qilishga intiladilar, biroq qonun ularga bolalar sifatida qaraydi. Ular ishlashni istashlari mumkin, biroq maktabda o'qishga majbur. Ijtimoiylashuvning buzilishidagi asosiy sabablar ichida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin.

a) kattalarning o'smirga shaxs emas, balki tasir obyekti sifatidagi munosabati. Bazi kattalarning xulqi o'smirda uning o'zida mavjud bo'lmagan sifatlarni shakllantiradi. Bu esa unda kattalarning maslahatlarini noto'g'ri qabul qilishni uyg'otadi. O'smir kattalar harakatida, talablarida o'zlari amal qilmaydigan, yoki o'zlariga mos bo'lmagan axloqni ko'rib, sezilar ulardan qocha boshlaydilar. Ular o'zlarini aldamaydigan, teng ko'radigan odamni izlashni boshlaydilar.

b) juda ko'p bolalar uchun oila hayotiy misollarda tajovuzkor axloq va psixik jarohatni keltirib chiqaruvchi vaziyatlarning asosiy manbai hisoblanadi. O'smir o'zi yashayotgan oilani boshqa oilalar bilan tengdoshlarining gaplari, atrofidagilarning fikri bo'yicha solishtiradi, har doim ham to'g'ri bo'lmagan xulosalar chiqaradi. Garchi o'zi oiladagi vaziyatni yaxshilash uchun biror narsa qilishga qodir bo'lmasada, kurashadi. O'smir atrofidagi sinfdoshlari, tengdoshlari birmuncha huzur-halovatli sharoitlarda yashayotganlarini ko'radi, bu narsa ham o'smirning rivojlanishida ma'lum bir ta'sirni ko'rsatmay qolmaydi.

Demak, hali to'liq shakllanib ulgurmagani o'smir tushunchasida qarama-qarshiliklar paydo bo'ladi.

Bu vaqtda o'qituvchilarning o'smirni oilaviy sharoiti, mijoz, rivojlanish imkoniyatlarini hisobga olmay qilgan muomalalari ham o'smir axloqida keskin burilishlar yasashga olib kelishi mumkin. Shaxsning shakllanishida o'smirlik yoshi, ya'ni uning ijtimoiy, biologik va psixologik rivojlanishida murakkab davr hisoblanadi. Hayot yo'lining mana shu muhim qismida o'smir shaxsining axloqiy sifatleri shakllanib boradi. Xuddi shu davrda o'smirlar aqliy kamoloti bilan birgalikda, ularning xarakter xususiyatlari ham shakllanadi. O'smir xarakter xususiyatlari shakllanishiga asosiy ta'sir etuvchi omillar qatoriga asosan biologik, ijtimoiy va psixologik ta'sir vositalarini kiritamiz. Darhaqiqat, o'smir shaxsining shakllanishida yuqorida keltirilgan ta'sir vositalarining o'rni muhimdir. Xuddi shu davrda o'smir organizmida biologik, fiziologik qayta qurilish davri kechishi natijasida ularda agressiv xulq motivlari namoyon bo'ladi.

#### XULOSA

11-12 yoshdagi o'quvchining emotsional sohasidagi buzilishlar bilim, o'quv faoliyatidagi kamchiliklari; aqliy faoliyat usullaridan keng foydalana bilmaslik, eng muhim bilim ko'nikma va malakalarni egallashdagi uzilishlar; maktab faoliyatidagi: o'qitishdagi nuqsonlar, tarbiyaviy chora-tadbirlardagi xatolar ham shular jumlasiga kiradi. Maktabdan tashqari muhitning ta'siridagi nuqsonlar, chunonchi, oilada, pedagogik-psixologik bilimlarning etishmasligi, oilaviy nizolar, ajralish otananing ichkilikka va salbiy ishlargaberilishi, balog'atga etmagan tengqurlarining ta'siri, ma'daniy-ma'rifiy ishlab chiqarish jamoalari xamda jamoatchilik qurshovidagi kamchiliklar ham xulqi og'ishgan o'smirlar ko'payishiga sabab bo'ladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Myers D.G. Psychology. Ninth Edition. – Worth Publishers, 2010. – 910 p.
2. G'oziyev E.G'. Umumiy psixologiya. T.: O'qituvchi, 2010.
3. Леонтьев А.Н. Лекции по общей психологии: учеб. Пособие для студ. ВУЗов. – 5-е изд., – М.: Смысл; “Академия”, 2010. – 511 с.
4. Лурия А.Р. Лекции по общей психологии. – СПб.: 2006. – 320 с.